

---

## 1 oktyabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni

Bayram munosabati bilan ustoz san'atkorlarning Farg'ona ahli bilan uchrashuvi bo'lib o'tmoqda Inson ma'naviyatining shakllanishi va yuksalishida adabiyot va san'atning, xususan, teatr san'atining ham alohida o'rni bor. Zero, teatrlarimizda namoyish etiladigan har bir sahna asari hayot ko'zgidir.

O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan "Islom Karimov" nomidagi teatr-kontsert saroyida Milliy akademik drama teatrining ustoz san'atkorlari ishtirokida uchrashuv tadbirlari o'tkazilmoqda. Bugun o'tkazilgan uchrashuv ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi. O'zbekiston xalq artistlari Yoqub Ahmedov, Erkin Komilov, Yodgor Sa'diev, Saida Rametova, Zuhra Ashurova hamda boshqa teatr san'atkorlari o'z chiqishlari bilan san'atsevar fuqarolarga bayram shodligini ulashdilar.

Uchrashuvlar 2-3 oktyabr kunlari soat 11:00 va 15:00 larda ham o'tkazilishi belgilangan. San'atsevar shahrimiz fuqarolari va mehmonlarini mazkur uchrashuvlarga taklif etamiz.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-01 20:44:42